



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI  
JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI**

**AXBOROT XATI**

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika universiteti, Jismoniy madaniyat fakultetida 2022 yil 18-noyabrda **“Talabalarda sog‘lom turmush tarzini jismoniy madaniyat asosida takomillashtirish: muammo va yechimlari”** mavzusida Respublika miqiyosidagi ta‘lim muassasalararo ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Shu munosabat bilan Siz rahbarlik qilayotgan ta‘lim muassasasi professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodim va mustaqil izlanuvchilari, magistrantlar, talabalar hamda soha mutaxassislarini anjumanda o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etishga taklif etamiz.

**Ilmiy-amaliy anjumanning maqsadi:** Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzini jismoniy madaniyat asosida tashkil etish va takomillashtirish shuningdek oliy ta‘lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdagi tajribalar va ularning natijalari bo‘yicha ilmiy asoslangan fikrlar muhokamasi.

**Anjumanda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sho‘balar tashkil qilinadi:**

❖ **1-sho‘ba:** Talabalar jismoniy madaniyatini takomillashtirishga oid jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishning dolzarb muammo va yechimlari.

❖ **2-sho‘ba:** Talabalar jismoniy madaniyatini takomillashtirishda zamonaviy sport inshootlari va jixozlaridan samarali foydalanishning innovatsion texnologiyalari;

❖ **3-sho‘ba:** Oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar bilan jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishning uslubiy asoslari.

❖ **4-sho‘ba** Talabalar jismoniy madaniyatini takomillashtirish orqali bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasbiy kompetentligini rivojlantirish.



## Mualliflar uchun ma'lumot:

### **Maqolalar 2022 yil 10-noyabrgacha qabul qilinadi**

anjuman to'plamida **maqolani nashr etish uchun** (maqolani rasmiylashtirish namunasiga qarang) – alohida fayl, fayl nomi o'z ichiga birinchi muallif (hammualliflar) ning familiyasi, ismi, sharifi, anjuman ishi seksiyasining nomeri, maqolaning nomini oladi. Masalan: **Maqola\_Olimov\_A.I.\_№1\_ Talabalarda sog'lom turmush tarzini jismoniy madaniyat asosida takomillashtirish.**

Anjumanda ma'ruza qilingan mavzularning matni ilmiy to'plamda maqola shaklida chop etiladi. Maqola matnida keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar javobgardirlar.

- Matnlar hajmi A4 formatda, Microsoft Word matn muharriri yordamida, Times New Roman 14 o'lchamli shriftda, 1,5 interval oraliqda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm va o'ngdan 1,5 sm;

- Birinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflarda maqola yoki tezisning nomi, ikkinchi qatorda muallifning ismi-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish joyi, lavozimi, telefon raqami va elektron manzili ko'rsatiladi;

- Maqola yoki tezislarda rus va ingliz tillarida qisqa annotatsiya, kalit (tayanch iboralar) so'zlar ko'rsatiladi;

- Maqola yoki tezislar 1 (bir) nusxada tahrir qilingan holda qog'oz va elektron shaklda tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi;

- Maqola yoki tezislarning hajmi 3 betdan kam bo'lmagan hamda 5 betdan oshmagan xolda bo'lishi talab etiladi;

- Maqola yoki tezis oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati beriladi, barcha havola (snoska)lar tik qavus ichida ko'rsatiladi [1];

- Mualliflar bayon etgan ma'lumotlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi va metodologik jihatlari uchun mas'ul;

- Anjuman materiallari o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi;

- Talablarga javob bermaydigan holda rasmiylashtirilgan va belgilangan muddatdan kechikib yuborilgan materiallar qabul qilinmaydi hamda chop etilmaydi;

To'plamga UDK, BBK, kutubxona indeksleri kitob raqami beriladi.

Ishtirokchilar konferensiyaning yalpi majlisida "Eng yaxshi maqola" va "Eng yaxshi ma'ruza" va bir qancha shu kabi nominatsiyalar sertifikat bilan taqdirlanadilar. Shuningdek ushbu nominatsiya g'oliblari maqolalari "[Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik](http://pshedu.jspi.uz)" ([pshedu.jspi.uz](http://pshedu.jspi.uz)) elektron jurnalida e'lon qilinadi.

To'plam mualliflar hisobidan chop ettiriladi. Har bir maqola yoki tezis uchun badal puli 50 000 (ellik ming) so'm qilib belgilangan.

Badal puli naqd to'lov shaklida yoki pul o'tkazmalari (*klik yoki hisob raqamiga*) orqali qabul qilinadi.

Klik orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun: +998915656056 raqamiga murojaat etishingiz mumkin.

**Eslatma:** *Hisob raqamga pul o'tkazmalari amalga oshirilganda "konferensiya uchun" deb belgilanishi lozim bo'ladi.*

Ma'sullar: Olimov Alisher Isakovich +998903116777

Egamberdiev Rustam Narzullaevich +998915656056

Telegram +998903116777

